
AQShdan tashrif buyurgan professor mashg'ulotlarni boshladi

AQShdan tashrif buyurgan professor mashg'ulotlarni boshladi

Universitetimizning “Elektrotexnika va mexatronika” kafedrasini va AQShning Shimoliy Dakota Shtati Universiteti o'rtasida yaxshi hamkorlik yo'lga qo'yilgan bo'lib so'ngi yillardan asosan hamkorlikda malakali ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashga e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli ushbu universitet professori Tomos Bon kafedraga tashrif buyurib 2022 yil 24-fevraldan navbatdagi darslarni boshladi. Ma'lumki ilmiy sohada ekperiment o'tkazish, gipoteza, statistik va ilmiy tahlil qilish nihoyatda muhim omillardan hisoblanadi. Professor Tomos Bon “Elektrotexnika va mexatronika” kafedrasining 70810502 - Intellektual o'lchash tizimlari va asboblari (tarmoqlar bo'yicha) magistrleri, tayanch doktorantlar va yosh olimlariga “Injenerlik eksperimentlari va ekperimental stasistika” fanidan zamonaviy metodlardan foydalangan holda mashg'ulotlar olib bormoqda.



Kirish mashg'ulotida kafedra mudiri Rustam Baratov professor Tomas Bon bilan tinglovchilarni yaqindan tanishtirdi. Professor Tomas Bon o'zining 40 yillik tajribasidan kelib chiqib magistrler va doktorantlarga kerakli ma'lumotlarni berib bormoqda. Biz o'ylaymizki bu sohada magistrler yuqori ko'nikmalar hosil qilgan holda bu fanni sitqidildan o'zlashtiradi va kelajakdagi ilmiy ishlarida keng foydalanadi.

